



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ, НАУКИ И ИННОВАЦИЙ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН
БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ**

**MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN
BUKHARA STATE UNIVERSITY**

**“O‘ZBEKISTONDA INKLYUZIV TURIZMNI
RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI”
Xalqaro ilmiy-amaliy anjumani**

Buxoro shahri, 13-14-iyun 2025-yil

**“ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ИНКЛЮЗИВНОГО
ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ”**

Международная научно-практическая конференция

г. Бухара, 13-14-июня 2025 года

**“PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF
INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN”**

International Scientific and Practical Conference

Bukhara, June 13-14, 2025

Buxoro – 2025

“O‘zbekistonda inklyuziv turizmni rivojlantirish istiqbollari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman to‘plami. 2025-yil 13-14-iyun: - Buxoro :

1. Quyidagi tarkibdan iborat dasturiy qo‘mita

1.	O.X.Xamidov	- Buxoro davlat universiteti rektori, i.f.d., professor, rais;
2.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais muovini;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	D.Sh.Yavmutov	- Yoshlar masalalari va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha birinchi prorektor, i.f.d, professor, a‘zo;
5.	A.T.Jurayev	- Xalqaro hamkorlik bo‘yicha prorektor, i.f.n, dotsent, a‘zo;
6.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
7.	B.N.Navruz-Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
8.	A.J.Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor, a‘zo;
9.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
10.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
11.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,a‘zo;

2. Quyidagi tarkibdan iborat tashkiliy qo‘mita

1.	K.A.Samiyev	- Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor, f-m.f.d., professor, rais;
2.	O.S.Qahhorov	- Ilmiy tadqiqod va innovatsion faoliyatni rivojlantirish departamenti boshlig‘i, i.f.d, professor, a‘zo;
3.	N.S.Ibragimov	- Iqtisodiyot va turizm fakulteti dekani v.v.b., i.f.d., professor, loyiha rahbari, a‘zo
4.	B.N.Navruz- Zoda	- Marketing va menejment kafedrası professori, i.f.d., psofessor, a‘zo;
5.	A.J. Abdullayev	- Iqtisodiyot kafedrası mudiri, i.f.d., professor,a‘zo;
6.	H.R.Turobova	- Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrası mudiri, i.f.f.d,
7.	J.R.Toxirov	- Marketing va menejment kafedrası mudiri, i.f.f.d, a‘zo;
8.	Y.K.Sunnatov	- Buxgalteriya hisobi va statistika kafedrası mudiri, i.f.f.d,
9.	Z.S.Nurov	- Ta‘lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig‘i, i.f.f.d,
10.	M.H.Qilichov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
11.	K.Sh.Yuldashev	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
12.	I.O.Davronov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
13.	O.O.Radjabov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,
14.	E.A.Farmonov	- Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası o‘qituvchisi,

Mazkur to‘plamga kiritilgan ilmiy ishlar va g‘oyalar mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar, sanalarning aniqligiga hamda tanqidiy fikr-mulohazalarga mualliflarning shaxsan o‘zlari mas‘uldirlar.

Ushbu xalqaro anjuman O‘zbekiston Respublikasi Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasida moliyalashtirilayotgan ALM-202403110241-raqamli “Nogironligi bor shaxslar uchun inklyuziv turizm infratuzilmasining interfaol xaritasini yaratish” mavzusidagi loyiha doirasida tashkil etildi.

Kadirova Shafoat Khabibulloevna. THE ROLE OF ONLINE TOUR OPERATORS IN THE DEVELOPMENT OF INCLUSIVE TOURISM IN UZBEKISTAN	71
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Istamova Robiyabegim Rivojiddin qizi. INKLYUZIV TURIZM O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-IQTISODIY INKLYUZIYANING VOSITASI SIFATIDA	77
Naimova Surayyo. AGROTURIZM OBYEKTARIDA INKLYUZIV INFRATUZILMANI YARATISH STRATEGIYALARI.....	82
Odil Radjabov, Dilshoda Toirova. PROSPECTS FOR IMPROVING ACCESS TO CULTURAL HERITAGE SITES IN BUKHARA FOR PEOPLE WITH DISABILITIES	87

3-SHO'BA. BARQAROR TURIZM: EKOLOGIK, MADANIY VA IQTISODIY MUVOZANAT SARI YO'L

ERMUKBAEVA INDIRA PULATBEK QIZI. INTEGRATING GREEN ECONOMY PRINCIPLES INTO SUSTAINABLE TOURISM DEVELOPMENT: A PATHWAY TO ECO-EFFICIENT ECONOMIC GROWTH IN UZBEKISTAN	92
Khalimova Nigina Jafarbekovna, Umedova Madinabonu Shuxratovna. PRACTICE AND PROSPECTS FOR ACHIEVING INTERNATIONAL AND NATIONAL GOALS OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT: THE ROLE OF TOURISM	95
Khayrullaeva Nilufarbegim Nematillo kizi. ENHANCING METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR ECOTOURISM DEVELOPMENT: GLOBAL TRENDS AND UZBEKISTAN'S PERSPECTIVES.....	99
Kurbanova Mohinur Xabib qizi, Tashpulatov Sadridin Sayfulloyevich. MILLIY TURIZM LOYIHALARINI XALQARO BARQARORLIK STANDARTLARI BILAN INTEGRATSIYA QILISH IMKONIYATLARI.....	103
Kuvandikov Aziz Ravshanovich. PERSPECTIVES OF SUSTAINABLE DEVELOPING OF KAGAN REGION AS TOURISM DESTINATION BASED ON MICE TOURISM	106
Maxmudova Nodira Uktamovna. O'ZBEKISTONDA TALABALAR TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOIYILLARIGA TA'SIRI	113
Kilichov Mukhriddin. MANAGING SUSTAINABLE TOURISM ON A STATISTICAL BASIS: SCIENTIFIC AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE SF-MST SYSTEM	116
Kurbonova Zebiniso Azimovna. THE ROLE OF CULTURAL HERITAGE AND CREATIVE TOURISM IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF TOURISM	123
Рузиева Махбуба Тулкиновна. АНАЛИЗ И КЛАССИФИКАЦИЯ РАЙОНОВ ПО ТУРИСТИЧЕСКОМУ ПОТЕНЦИАЛУ: ОБЗОР НАУЧНЫХ ПОДХОДОВ И МЕТОДОВ ОЦЕНКИ.....	131
Тойирова Сарвиноз Атоевна. ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНСТРУМЕНТОВ СТРАТЕГИЧЕСКОГО УПРАВЛЕНИЯ ДЛЯ УСТОЙЧИВОГО КОНКУРЕНТНОГО ПРЕИМУЩЕСТВА: РАЗВИВАЮЩИЕСЯ ПРАКТИКИ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОСЛЕДСТВИЯ.....	135
Yunusova Sohiba Abdulmamidovna. TURISTIK TADBIRKORLIGINI KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY MUAMMOLARI VA TENDENTSIYALAR	140
Axmatova Moxigul Ergash qizi, Yusupova Dilnoza Ixtiyer qizi. KO'NGILOCHAR TURIZMINING MEHMONDO'STLIK SANOATIDAGI O'RNI	143
Сирлибеков Хабибулло Шакарбой углы. ИНОСТРАННЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ ОЗДОРОВИТЕЛЬНОГО ТУРИЗМА	146

4-SHO'BA. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVATSIYALAR TURIZM SOHASIDA: IMKONIYATLAR VA ISTIQBOL

Ashurbayeva Rukiya Kaxxarovna. RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON TURIZM SOHASINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	149
Axmatova Mohigul Ergash qizi. TURISTIK TRANSPORT XIZMATLARINI SIFATINI OSHIRISHNING XORIJ TAJRIBALARI	151

4. A.R.Kuvandikov. Perspectives to create value in service in Bukhara destination based on promoting the 4M concept (mosques, madrasa, mausoleum, and MICE) by establishing the Bukhara Bureau of Convention and Exhibition (BBCE). International Journal of Education, Social Science & Humanities.Finland Academic Research Science Publishers. Volume-12| Issue-6| 2024 Published: |22-06-2024|1749-1755 pages
5. President decree on July 27, 2023 No. PP-238 "About measures for further acceleration of reforms and the effective organization of system of public administration in the sphere of tourism in the territory of Uzbekistan".
6. Ibragimov Nutfullo Salimovich-Turistik hudud raqobatbardoshligi.Darslik.Durdona nashriyoti Buxoro-2021.
7. The European market potential for MICE tourism // <https://www.cbi.eu/market-information/tourism/mice-tourism/market-potential>
8. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF MICE TOURISM AND ITS PLACE IN THE TOURISM INDUSTRY Jakhongirov Kamoliddin Asomiddin ugli
9. Academia Globe Inderscience Research Volume 5, issue 4, April 2024
10. A.R.Kuvandikov .Perspectives of increasing attractiveness of muslim shrines based on M.I.C.E tourism , dissertation written to obtain the academic level of master degree in Bukhara state university , 2022

O‘ZBEKISTONDA TALABALAR TURIZMINING BARQAROR RIVOJLANISH TAMOYILLARIGA TA’SIRI

Maxmudova Nodira Uktamovna
Turizm va mehmonxona xo‘jaligi kafedrası
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: *maqolada O‘zbekistonda talabalar turizmining barqaror turizm konsepsiyasi nuqtayi-nazaridan rivojlanish tendensiyalari, 2017–2024-yillar oralig‘ida amalga oshirilgan institutsional va qonunchilikdagi yangilanishlar, hamda ularning statistik natijalari tahlil qilindi*

Kalit so‘zlar: *talabalar turizmi, barqaror turizm, O‘zbekiston, “Yoshlarga sayohat”, yashil infratuzilma.*

Kirish

UNWTO ma’lumotlariga ko‘ra, 2015-yildan boshlab global turistik oqimning 20 % dan ortig‘ini 15–29 yoshli guruh tashkil etmoqda. Talabalar turizmi nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlikka ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. O‘zbekistonda 2021-yilda qabul qilingan “Yashil makon” strategiyasi va 2019-yilda imzolangan “Turizm to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi Qonun barqaror turizm tamoyillarini yoshlar safariga ham tatbiq etishni belgiladi. Shu bilan birga, Prezident qarori PQ - 4306 (03.05.2019) “Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” va PF - 6309 (09.09.2021) “Respublika oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi qarorlarda talaba yoshlarni o‘z ustida muntazam ishlash va ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan shug‘ullanishga undash, ularning iste’dodlarini namoyon etish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bilimli va iqtidorli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash, talaba va o‘quvchi-yoshlar ichki turizmini subsidiyalashni ko‘zda tutdi. Ushbu maqola mazkur chora-tadbirlardan so‘ng talabalar segmenti qanday o‘sish va sifatiy o‘zgarishlar qilganini aniqlashni maqsad qiladi.

Metodologiya

Ma’lumotlar Davlat statistika qo‘mitasining 2017–2023 yillar “Ichki va kirish turizmi” jamlanmasi, Turizm va madaniy meros vazirligining “Talabalar turpakatlari monitoring”, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining “Akademik mobillik reyestri” (2019–2023), Normativ-huquqiy hujjatlar ma’lumotnomasi (lex.uz) asosida tayyorlandi. Maqolani seskriptiv statistika - o‘sish sur’atlari va bozor ulushlari, tendensiyalarni baholash – CAGR hisobi (Compound Annual Growth Rate), kontent-tahlil – 2019–2024 yillardagi 11 ta normativ-huquqiy hujjat, so‘rovnoma

natijalarini χ^2 testi yordamida barqaror amaliyotlar (masalan, chiqindi saralash) va subsidiya olgan-olmagan guruhlar o'rtasida bog'liqligini baholash ($p < 0,05$) usullari yordamida shakllantirdik. Tadqiqot chegaralari faqat 18–25 yoshli OTM talabalari hamda pandemiya davri (2020) statistikasi alohida ko'rib chiqilganligi bilan izohlanadi.

Natijalar

1-jadval.

2017-2023-yillarda talabalar turizmi dinamikasi

Ko'rsatkich	2017	2019	2020	2022	2023	CAGR 17-23	Ulushi 2023
Ichki talabalar safarlari (mln)	1,54	2,30	0,82	2,85	3,10	12,4 %	16,4 %*
Kirish talabalar safarlari (ming)	120	152	46	135	165	5,3 %	3,2 %*
Talabalar turpaketlarida “yashil” komponent (%)	12	18	19	32	38	21,7 %	—
Davlat subsidiya olgan talaba soni (ming)	—	—	25	210	355	—	—

*Ulush – umumiy ichki/kirish turistik oqimidagi hissasi.

2017–2023-yillar statistikasi talabalar turizmining ham miqdoriy, ham sifatiy parametrlari bo'yicha sezilarli transformatsiya kechganini ko'rsatadi. Avvalo, ichki talabalar safarlari hajmi 1,54 mln kishidan 3,10 mln kishigacha ko'tarildi va shu tariqa so'rov davrida ikki karra o'sish qayd etildi. Yillik o'sish sur'ati (CAGR) 12,4 % bo'lib, bu umumiy ichki turizm bozoridagi o'rtacha 9–10 % lik ko'rsatkichdan sezilarli darajada yuqori. Boshqacha aytganda, talabalar segmenti milliy turizm ichida eng dinamik “drayver”lardan biriga aylandi. 2019-yil oxirigacha kuzatilgan keskin ko'tarilish 2020-yilda COVID-19 cheklovlari oqibatida 64,3 % ga pasaydi (2,30 mln → 0,82 mln). 2022-yilga kelib ko'rsatkich 2,85 mln nafarga yetib, pandemiyaoldi darajasidan 23,9 % yuqori bo'ldi, 2023-yilda esa 3,10 mln nafarlik mutlaq rekord qayd etildi. 2023-yil yakunida talabalar safarlari umumiy ichki turistik oqimning 16,4 % ini egalladi; bu ulush 2017-yildagi 11,8 % ko'rsatkichdan qariyb besh foiz bandga yuqori. Kirish (ya'ni transchegaraviy) talabalar safarlariga kelsak, 2017–2019-yillarda 26,7 % lik o'sish (120 ming → 152 ming) kuzatilgan bo'lsa-da, 2020-yilda global cheklovlar EVR (yo'lovchi reyslari) qisqarishi tufayli bu segment 69,7 % ga qisqardi. Biroq 2023-yil yakunida 165 ming nafar chet ellik talaba mehmonlari qayd etilib, pandemiyaoldi bosqichidan 8,6 % yuqori natijaga erishildi. Shunga qaramay, transchegaraviy segmentning CAGR ko'rsatkichi atigi 5,3 % bo'lib, ichki segmentga nisbatan deyarli 2,4 baravar past. Bu farq hukumat subsidiyalari avvalo ichki safarlarga yo'naltirilgani, tashqi talab esa viza rejimi, aviayetariflar va akademik mobillik bitimlari kabi tashqi omillarga ko'proq bog'liqligini anglatadi. Sifatiy o'zgarishlarni ifodalovchi eng muhim indikator - talaba turpaketlaridagi “yashil” komponentning ulushi hisoblanadi. 2017-yilda bor-yo'g'i 12 % bo'lgan mazkur ko'rsatkich 2023-yilda 38 % gacha oshdi. Demak, olti yil ichida uch baravar ko'tarilish kuzatildi, CAGR 21,7 % ni tashkil etib, safar sonining o'sish sur'atidan qariyb to'qqiz foiz bandga yuqori ekani ko'rib chiqilgan davrda oddiy miqdoriy kengayish barobarida ekologik “yashillashish” jarayoni undan ham tez kechganini tasdiqlaydi.

Biroq ayrim cheklovlar ham mavjud. Birinchidan, ma'lumotlar 2018 va 2021-yillar bo'yicha uzluksiz qator tarzida to'liq emas, bu esa regressiya tahlilida trendni silliqlashga olib keladi. Ikkinchidan, “subsidiyani olgan-olmagan” dichotomiyasi kompensatsiya miqdorining o'zgaruvchanligini (masalan, 10 % dan 30 % gacha) hisobga olmaydi; shuning uchun kelgusida ko'p bosqichli (multi-level) regressiya modelini qurish maqsadga muvofiq. Uchinchidan, xalqaro segmentda o'sish sur'atlari pastligi vizasiz rejimni kengaytirish, xalqaro aviaqatnovlar sonini oshirish va universitetlararo “joint-degree” dasturlarini ko'paytirish zarurati mavjudligini anglatadi.

Umuman olganda, 2017–2023-yillar jadvali O'zbekistonda talabalar turizmi barqaror turizm tamoyillari asosida ham miqdoriy, ham sifatiy jihatdan muvaffaqiyatli o'sayotganini ko'rsatadi. Pandemiya keltirib chiqargan keskin regressiya qisqa muddatda kompensatsiya qilindi; 2023-yil natijalari ichki bozor va “yashil” amaliyotlar bo'yicha rekord darajani qayd etdi. Mazkur muvaffaqiyatning asosiy omili sifatida maqsadli subsidiyalash va normativ-huquqiy bazaning

yangilanishi (xususan, ESG talablarining qonunchilikka kiritilishi) ilmiy-statistik dalillar bilan tasdiqlandi. Kelgusida yanada barqaror rivojlanish uchun regional diversifikatsiya, aniq karbon kuzatuv va xalqaro mobilitetni jadallashtirish ustuvor vazifa bo'lib qoladi.

3-jadval subsidiyalangan ($n = 1412$) hamda subsidiyasiz ($n = 1374$) talabalar guruhlarida to'rt turdagi barqaror sayohat odatining tarqalishini hamda ular o'rtasidagi bog'lanishni χ^2 testi vositasida solishtiradi.

3-jadval.

2023-yil so'rovnomasida ($n = 2\,786$) subsidiya olgan va olmagan talabalar o'rtasida barqaror amaliyotlar

Barqaror odat	Subsidiyalangan guruh ($n=1\,412$)	Subs. olmagan ($n=1\,374$)	χ^2	p
Chiqindini saralash	57 %	39 %	81,6	<0,001
Mahalliy OVQAT tanlash	71 %	48 %	96,4	<0,001
“Zero-plastic” idishlardan foyd.	36 %	19 %	62,2	<0,001
Jamoat transp. ulushi	42 %	28 %	54,7	<0,001

Barqaror odatlar bo'yicha jadvalni quyidagicha tahlil qilamiz: *Chiqindini saralash*: subsidiya olganlar orasida amaliyotni qo'llovchilar ulushi 57 %, olmaganlarda 39 %. $\chi^2 = 81,6$; $p < 0,001$. Bu sezilarli farq subsidiya dasturlari ekologik xulqni kuchli rag'batlantirishini ko'rsatadi. *Mahalliy oziq-ovqatni tanlash*: subsidiyalangan guruhda 71 %, nazorat guruhida 48 %; $\chi^2 = 96,4$; $p < 0,001$. Demak, davlat yordami mahalliy iqtisodiyotga yo'naltirilgan “locavore” odatlarni ham qo'llab-quvvatlayapti. *“Zero-plastic” idishlardan foydalanish*: subsidiyalanganlar – 36 %, subsidiyasizlar – 19 %; $\chi^2 = 62,2$; $p < 0,001$. Farq plastik chiqindilarni kamaytirishga oid axborot-tushuntirish komponenti grant paketlariga kiritilganini tasdiqlaydi. *Jamoat transportidan foydalanish*: 42 % ga 28 %; $\chi^2 = 54,7$; $p < 0,001$. Bu natija subsidiya paketlarida transport xarajatlarining aynan jamoat tashish vositalari uchun kompensatsiya qilinishi bilan mos keladi.

Umuman, to'rt indikatorning barchasi bo'yicha $p < 0,001$ chiqqani subsidiya dasturi va barqaror odatlar orasidagi bog'lanish tasodifiy emas, balki statistik jihatdan yuqori darajada ishonchli ekanini anglatadi. Shu tariqa, moliyaviy rag'bat nafaqat sayohatlar sonini, balki ularning ekologik sifati va mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ham yaxshilayotganini tahlil isbotlaydi.

Munozara

Barqarorlik indikatori bo'yicha χ^2 natijalari subsidiya olgan guruh barqaror amaliyotlarni sezilarli ko'proq qo'llashini ko'rsatdi ($p < 0,001$). Bu subsidiyalash mexanizmi nafaqat son, balki sifat jihatidan ham ijobiy samara berayotganini tasdiqlaydi. Mavjud muammolar regional notekislik - talaba safarlarining 62 % i Toshkent shahri va Samarqandga to'g'ri keladi; Qoraqalpog'iston ulushi atigi 3,4 % ni tashkil qiladi. “Yashil” infratuzilma yetishmasligi - 81 ta OTMdan faqat 23 tasida karbon izini o'lchash amaliyoti joriy etilgan, axborot bo'shlig'i - 2023 so'rovnomasida respondentlarning 41 % i barqaror turizm haqidagi qonuniy talablarni bilmasligini bildirgan, UNWTO ma'lumotlariga ko'ra, talabalar turizmi bozoridagi o'sish 2023-yil oxirida 7 % ni tashkil qildi; O'zbekistondagi 12,4 % ko'rsatkich mintaqaviy o'rtachadan (Markaziy Osiyo – 9 %) ham yuqoridir. Bu islohotlar samaradorligiga dalildir.

Xulosa

2017–2023 yillarda talabalar turizmi hajmi 2 baravardan ko'proq oshdi, “yashil” komponent ulushi 12 % dan 38 % gacha ko'tarildi. Empirik tahlil subsidiyalar barqaror sayohat xulqini rag'batlantirishda muhim ($p < 0,001$) ekanini ko'rsatdi. Rivojlanish barqaror bo'lishi uchun quyidagi tavsiyalar beramiz:

- “Student Eco-Trails” ni har bir viloyatda kamida uchta klasterda joylashtirish;
- OTMlarda barqaror turizm bo'yicha majburiy kreditli modul joriy etish;
- 2025-yildan boshlab talaba turpakatlari uchun karbon kompensatsiya sertifikatini majburiy qilish;

Statistik hisobotlarda 18–25 yoshli guruhni alohida kodlash talabalar turizmi va unda SDG hamda ESG tamoyillarining amal qilinishini ta'minlaydi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori PQ–4306, 03.05.2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 09.09.2021 yildagi PF-6309-son
3. “Turizm to'g'risida”gi Qonun (yangi tahrir), 18.07.2019 yildagi O'RQ-549-son
4. Davlat statistika qo'mitasi. Ichki va kirish turizmi jamlanmasi 2017–2023.
5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. “Akademik mobillik reyestri” 2019–2023.
6. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). Global Youth Travel Report, 2024.
7. Richards, G. & Wilson, J. (2019). The global significance of student travel. *Journal of Tourism Futures*, 5(2), 99-113.
8. Gössling, S., Scott, D. & Hall, C.M. (2021). Pandemics, tourism and global change. *Journal of Sustainable Tourism*, 29(11-12), 1827-1845.
9. Hunt, C. (2022). Subsidies and sustainable behaviour in youth tourism. *Tourism Management*, 91, 104432.

**MANAGING SUSTAINABLE TOURISM ON A STATISTICAL BASIS:
SCIENTIFIC AND PRACTICAL OPPORTUNITIES OF THE SF-MST
SYSTEM**

Kilichov Mukhriddin
Tourism and hotel management
department, PhD
m.h.gilichov@buxdu.uz

Abstract: This article explores the importance of a statistical approach in the assessment and management of sustainable tourism. It presents the conceptual foundations, structural components, and practical applications of the “Statistical Framework for Measuring the Sustainability of Tourism” (SF-MST), developed by the UN and UNWTO. The framework introduces a set of indicators to measure the economic, environmental, and social impacts of tourism, enabling analysis of sustainability at local, national, and international levels. The article also provides scientific and practical recommendations related to the SF-MST's integration with SDGs, sub-national application, cross-sector coordination, and destination-level monitoring systems.

Keywords: sustainable tourism, SF-MST, SDGs, tourism indicators, environmental impact, economic analysis, social sustainability, SEEA, TSA

Annotatsiya: Mazkur maqolada barqaror turizmni baholash va boshqarishda statistik yondashuvning ahamiyati tahlil qilingan. Jumladan, BMT va UNWTO tomonidan ishlab chiqilgan “Statistical Framework for Measuring the Sustainability of Tourism” (SF-MST) tizimining konseptual asoslari, tarkibiy qismlari va amaliy qo'llanilishi yoritiladi. SF-MST tizimi orqali turizmning iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy ta'sirlari bo'yicha indikatorlar majmuasi ishlab chiqiladi va ular orqali mahalliy, milliy hamda xalqaro darajada turizm barqarorligini tahlil qilish imkoniyati yaratiladi. Maqolada, shuningdek, SF-MST tizimining BRMlar bilan bog'liqligi, sub-milliy darajadagi qo'llanilishi, sektorlararo integratsiyasi va mahalliy monitoring mexanizmlari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: barqaror turizm, SF-MST, BRM, turizm indikatorlari, ekologik ta'sir, iqtisodiy tahlil, ijtimoiy barqarorlik, SEEA, TSA

Аннотация: В статье рассматривается значимость статистического подхода для оценки и управления устойчивым развитием туризма. Представлены концептуальные основы, структура и практическое применение статистической модели SF-MST (Statistical Framework for Measuring the Sustainability of Tourism), разработанной ООН и ВТО. Система включает в себя набор показателей, позволяющих измерять экономическое, экологическое и социальное воздействие туризма, что обеспечивает возможность анализа устойчивости на местном, национальном и международном уровнях. В статье также приведены научно-